

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 821.512.133.09-3

ASQAD MUXTORNING AYOLLAR PSIXOLOGIYASINI YORITISHDA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI**МЕТОДИКА АСКАДА МУХТОРА В ОСВЕЩЕНИИ ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ****ASQAD MUKHTOR'S METHODOLOGY IN ILLUMINATING WOMEN'S PSYCHOLOGY****Ahmadjonova Oqilaxon Abdumalikovna**

Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada yangi o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Asqad Muxtorning "Tug'ilish" romanidagi ayollar obrazi tahlilga tortilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi qayta qurish davri, ya'ni XX asrning 50-60-yillarida kommunizm shiori ostida ayollar ham keng miqyosda jamoa mehnatiga jalb etila boshladi. Bu esa badiiy adabiyotda o'z haq-huquqini tanigan, ancha mustaqil harakat qiluvchi ayol obrazlarining paydo bo'lishida ham ko'zga tashlanadi. "Tug'ilish" romanida ana shunday ayol ayol obrazlarining ruhiy kechinma va holatlarining o'ziga xos jihatlari tahlilga tortilgan.

Аннотация

В статье анализируется образ женщины в романе «Рождение» Аскада Мухтара, одного из крупнейших представителей новой узбекской литературы. В период восстановления после Второй мировой войны, то есть в 50-60-е годы 20 века, под лозунгом коммунизма женщины стали широко привлекаться к коллективному труду. Это видно по появлению женских персонажей, которые признают свои права и действуют самостоятельно. В романе «Рождение» анализируются специфические стороны душевных переживаний и ситуаций таких женских персонажей.

Abstract

The article analyzes the image of women in the novel "Birth" by Asqad Mukhtar, one of the major representatives of new Uzbek literature. During the period of reconstruction after the Second World War, that is, in the 50s and 60s of the 20th century, under the slogan of communism, women began to be involved in collective labor on a large scale. This is evident in the appearance of female characters who recognize their rights and act independently. In the novel "Birth", the specific aspects of the mental experiences and situations of such female characters are analyzed.

Kalit so'zlar: xarakter, ayol, uslub, roman, ruhiyat, ichki kechinma, psixofiziologik belgilar**Ключевые слова:** персонаж, женщина, стиль, роман, психика, внутренний опыт, психофизиологические признаки**Key words:** character, woman, style, novel, psyche, inner experience, psychophysiological signs**KIRISH**

XX asr o'zbek adabiyotiga nazar solar ekanmiz, eng avvalo, realizm metodi bilan yangi-yangi janrlarning kirib kelishi, jahonga bo'ylasha oladigan romanlarning yozilishi ushbu davrning o'zbek adabiyotshunosligida o'ziga xos o'rni borligini ko'rsatadi.

Asqad Muxtorning deyarli barcha nasriy asarlarida ayollar obrazi o'zining shijoati, faolligi, ijtimoiy hayotda o'z fikrlarini ochiq aytishi barobarida rahbarlik qobiliyatiga ham ega shaxslar ekanligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Tug'ilish" romanida ayollar obrazi hayotdagi ijtimoiy o'rni, xarakteri jihatidan ancha rang-barangdir. Mazkur romanda ham bir necha ayol obrazlari bor. Ular qurilishga ishlashga borgan yosh qizlardan iborat. Yozuvchi asarda hech qanday bosh qahramonni ta'kidlab ko'rsatmaganidek, hech bir xotin-qizlar obrazini ham alohida ajratib bo'rttirib ko'rsatmaydi. Bir necha ayollar obrazi asarda birdek harakat qiladi, lekin har birining xarakteri, voqelikka munosabati, qalb kechinmasi, hayotdagi o'rni, fizionogmik belgilari, taqdiri turlichadir. Ularning har biri o'ziga xos jihati bilan o'quvchi ko'nglidan joy oladi. Bu obrazlar bo'rttirib

ADABIYOTSHUNOSLIK

ko'rsatilgan chiroyli ideal ham emas yoki kimgadir bo'ysunuvchan, mute ham emas. Ular real hayotda uchrab turadigan oriq, semiz, sariq, qoracha qizlardir. Har birining o'z mustaqil fikri va g'ururi bor. Hattoki, taqdir qismati bilan bir necha kunda butun oilasidan ayrilgan, hayotning zarbalariga qo'shimcha odamlarning "shumqadam" deb salbiy munosabatda bo'lib, jamiyatdan ajratib qo'yishlariga qaramay Adolatning ko'zlarida ham allaqanday yolqin bor edi. Ijodkor Adolat obrazini yaratar ekan, hayot shafqatsizligi yetmaganday, jamiyatdagi insonlarning ham ba'zida tubanlashib ketishini tavsiflaydi. Uning ismi ham bejiz Adolat deb qo'yilmagan. Ijodkor xalq orasidagi "Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi" aqidasi amal qilib, ushbu qahramon hayotida qanchadan-qancha noxushliklar bo'lishiga qaramay, baribir, adolat qaror topadi, Adolat baxtli hayot tomon odimlaydi.

Asarda yana o'z fikriga ega, mustaqil harakat qiluvchi ayol obrazlaridan biri Sadbar bo'lib, uning psixofiziologik holatlarini Luqmoncha bilan munosabatlari misolida yorqinroq ko'rishimiz mumkin:

"Luqmoncha bir vaqt bosh ko'tarsa, xonada hech kim yo'q. Faqat eshik tagidagi skameykaning bir chetida yolg'iz Sadbar **bosh egib** o'tiribdi. Nahotki, u Luqmonchani kutib qolgan bo'lsa? U ko'zlariga ishonmas, **qizga tikilgancha o'rnidan turolmay** qolganiga qancha vaqt bo'lganini bilolmas edi. Nima deyish kerak? Luqmoncha bunday uchrashuvga tayyor emas, axir...

U yaqinlashishga yurak qilolmay uzoqroq o'tirib qoldi. Sadbar buni mensimaslik deb bildi, shekilli, birdan turib eshikka otildi" ("Tug'ilish", 201-b.).

Ko'rinadiki, qizning ruhiyati, hamisha mag'rur yuruvchi psixofiziologik holati Luqmonchani ichki kechinmasi – hayrati orqali ochiladi. Yigit o'zini bir paytlar nazariga ilmagan qizning bosh egib kelishini kutmagan, bir chekkada **omonatday** o'tirib, uni kutishini xayoliga ham keltirmagandi. Yigit qizni ko'rib **karaxt** bo'lib qoldi, xayolidan bir zumda o'tgan kunlarning ko'p xotiralari tiklanadi. Qurilishga yangi kelgan paytlarida aytolmagan dil izhorlarimi, qizning mag'rur qiyofasimi, yoki tasodifan guvoh bo'lib qolgan o'sha qoya yonidagi voqeami, barchasi birdek xayoliga kelgan bo'lishi mumkin. Luqmonchani ixtiyorsiz qotib, ishonchsiz harakat qilishiga bir qancha sabablar bor edi. Albatta, Sadbarning xarakterida keskinlik, mustaqil qaror qabul qilish xislatlari Xoldorning aldovlariga uchishiga to'sqinlik qilmaydi. Sadbarning yetimlikda o'sgani, hech kimi yo'qligi, ishlagan pullari o'zida turishini bilgan Xoldor qizni o'zining yolg'on sevgisi, turmush qurish haqidagi fikrlari bilan aldaydi. Uning nomusini va pullarini o'g'iraydi. Xoldor Sadbarni tashlab ketgandan so'ng, qiz homiladorligi, bir vaqtlar Xoldorning yonini olib qizlar bilan ham, Luqmoncha bilan ham aytishib yurganiga afsuslanadi, jamoaning ko'zidan panaroq yuradi. Yozuvchi uning qalbida kechayotgan mana shunday iztirobli kechinmalarini uning tanholikka intilishi bilan izohlaydi. U o'zi bilan o'zi kurashadi, o'z ichini o'zi yeydi. Bu osonmi? Qizning qisqa muddatda ozib-to'zib ketishi, odamovi bo'lib qolishi Asqad Muxtor tomonidan ishonarli tasvirlanadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Sadbarning "bosh egib" o'tirishi orqali yozuvchi uch xil mazmun ifodalashga harakat qilgan. Birinchidan, bu holat o'zbek ayollariga xos psixofiziologik holat tasviri bo'lib, aksar hollarda jamoat joylarida o'zbek qizlarining ibo, hayo, odobining belgisi sifatidagi ko'rinish hisoblanadi. O'zbek ayollarida shakllangan qadim milliy tarbiya va islom dini g'oyalari soyasida voyaga yetgan qizlar begona hudud va begona erkaklar oldida boshini yuqori ko'tarib turishi odobsizlik sanaladi. Asqad Muxtor Sadbarning shu birgina psixofiziologik holati tasviri yordamida ko'p yillik milliy va diniy tarbiya asosida shakllangan qiz obrazini yaratgan. Ikkinchidan, mazkur "bosh egib" turish psixofiziologiyasida Sadbarning o'z xatolarini anglash va bu orqali aybdor ekanligini tan olish jarayoniga nozik ishora berilgan. Uchinchidan, yozuvchi qattiq o'yga tolgan, muammoning yechimini topish uchun turli fikrlar qurshovida qolgan ayolning chuqur ruhiy tarangligi ifodasi sifatida tasvirlagan. Birgina holatga ko'pgina poetik mazmun bera olganligi, albatta, yozuvchining insonlar psixologiyasini sinchiklab saralaganligidan dalolatdir.

Misolda Sadbarning "birdan" ketib qolish tasviri ham uning psixofiziologiyasidan darak beradi. Uning xayot sinovlarida turli muammoli vaziyatlarga duch kelganligi, yolg'on va aldovlar qurboniga aylanganligi ruhiyatiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jamiyatdagi Xoldor

kabi insonlarga nisbatan ishonchsizlik, qilgan xatolaridan hijolat bo'lishlik, amaliy faoliyatida umidsizlik tuyg'ulari yetakchi o'ringa ko'tarilgan. Sadbarning mazkur ko'rinishida ruhiy tushkinliklar va ilojsizlik sababi keltirilgan bo'lsa ham, yoshligidagi baland g'ururi saqlanib qolganligi ma'nosini ifodalash uchun Asqad Muxtor "birdan" chiqib ketish psixofiziologiyasidan mohirona foydalangan. Shuningdek, mazkur psixofiziologik tasvir asarning drammatizmini oshirishga ham yordam bergan bo'lib, o'z-o'zidan ushbu jarayon Luqmonchani ham psixologiyasiga ta'sir etmay qolmaydi. Qiz kutmagan holda unga katta ma'naviy yordam ko'rsatib, jamoa oldida "yuzi yorug'" bo'lishini ta'minlab beradi.

Yozuvchi "Tug'ilish" romanida Elchibek Bo'riyev bilan Ulyana Barsova juftligini yaratadi. Lekin ularning muhabbat borasidagi munosabatlariga asar voqealari so'ngida oydinlik kiritadi. Asar voqealari rivojida muallif har ikkisinin ham xarakter xususiyatlari va qalb kechinmalariga izoh bermaydi. Ularning yig'in va majlislardagi suhbatlari, ko'cha-ko'yda o'zaro duch kelganlarida salom-alik holatlari va ma'lum muammolarga munosabatlarida qanday shaxs ekanliklarini anglash mumkin. Mag'rur, qahri qattiq ko'rinsa-da, samimiy va soddadil Ulyana ilm yo'lini tanlaydi. Muhabbat, oila masalasi uning uchun ahamiyatsizdek ko'rinadi. Elchibek ham o'qimishli, o'z kasbining ustasi bo'lib, Ulyanadan farqli o'laroq, anchagina ko'ngilchan. Har muammoga jiddiy kuyib-pishib yondashadi. Romanni o'qish davomida o'quvchiga mulohazakor, qalbi pok, olijanob Elchibekning har erkakdan o'z manfaati yo'lida foydalanuvchi Humoxon bilan munosabatlari o'quvchiga erish tuyuladi. Qurilish jarayonidagi turli ziddiyatli jarayonlar, Rahmonqulov bilan kelishmovchilik holatlari, ba'zi muammolar oldida o'zini ojiz his etishi natijasida Elchibek ruhiyatida o'ziga bir hamdard istaydi. Bunday vaziyatdan foydalangan Humoxon vaqtdan unumli foydalana oladi.

Ulyananing "Muhabbatga bosh eggandan, dunyoga kelmagan yaxshi" degan murosasiz fikrlari, doimo sovuq xonada o'tirishi, sovuq muomalasi Elchibekning unga nisbatan befarqligini oshiradi. Lekin qish bo'lsa-da, xonasining sovib ketishiga qaramay, doimo toza havo istab derazasini ochib qo'yadigan qizning ko'ngli shaxsiy hayoti ham pokiza bo'lishini xohlaydi. Elchibekning mulohazakor tadbirlari, qurilish jarayonidagi qat'iyati uni befarq qoldirmaydi. Elchibekning Humoxon bilan munosabatidan qattiq norozi bo'lsa-da, qalbidagini ochiq aytmaydi. Alamidan sovuq va zaharxanda gapirsa-da, kechalari uning qo'shni xonaga, uyiga kelishini kutadi. Muallif bu kabi holatlarni juda mohirona tasvirlaydi:

"Hech kimga ko'rinmay yetib kelarman deb o'ylagan edi, bo'lmadi. Yana kelib-kelib Barsovaga duch kelganini aytmaysizmi? U Elchibekning kimnikidan kelayotganini biladi, albatta, biladi. Humoxon bilan bir necha marta ko'rgan. Ana u sharpaga boshini suqdi, sovuq salomlashib, eshigini yopib qo'ydi".

Asqad Muxtor psixofiziologik holat tasvirlarida o'xshatishdan ham mohirona foydalanadi. Ulyananing Elchibek bilan "sovuq" salomlashishidagi sovuq so'zida ma'no ko'chishi mavjud bo'lib, bu so'z qizning psixofiziologiyasidagi o'zgarishlarni ifodalash uchun qo'llanilganligi bilan xarakterlidir. Sovuq so'zi asl ma'nosida insonlarga ko'p qiyinchilik keltiruvchi haroratni bildiradi. Ma'no ko'chishi natijasida esa, ko'pincha, salbiy mazmuni ifodalash uchun qo'llanilib, ijobiy bo'lmagan holatlar, munosabatlar, jarayonlar, xabarlariga o'xshatish mazmunida foydalaniladi. Ulyananing "sovuq" salomlashishi Elchibekning harakatlaridan noroziligi, Elchibek bilan oralarida paydo bo'layotgan keskinlik, yigitga ko'ngli borligi natijasida yuzaga chiqayotgan iztirob, o'z tuyg'ularini unga ayta olmaganligi va uning harakatlariga aralasha olmasligi uchun ilojsizlik tuyg'ularini ochib beruvchi psixofiziologik holat tasviri hisoblanadi.

Tong qorong'usigacha qo'shnisining kelishini kutgan Ulyana nima uchun sovuq salomlashib eshigini yopib qo'ydi? Chunki u Elchibekni Humoxondan qizg'anar edi. Tushkun kayfiyatda hamdard izlagan Elchibek har erkakka ochiq-chiroy bo'lgan Humoxonning oldiga borishi, tunlari allamahalgacha unikida qolib ketishi Ulyananing g'azabini keltirardi. Unga akslanib, boshqarma yig'ilishlarida Elchibekni qattiq tanqid qildi. Uning ruhiy iztiroblari muallif izohi – remarkalarda, fiziologik ko'rinishi, tergovchi bilan suhbatlashish jarayonlarida aks etadi:

" – To'g'ri, bu munosabatning... dahli yo'q! – dedi Barsova. U negadir sal **qaltirayotgandek** ko'rindi. Elchibek uning "munosabat" degan so'zida allaqanday **jirkanish**,

ADABIYOTSHUNOSLIK

nafrat sezdi. – Siz o'rtiq Bo'riyev, o'z kuchingizga ortiqcha baho beryapsiz. Mana men keldim-u, qurilishda hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib o'zgartirib yuboramiz, degan o'ydasiz!...

Uyananing **yig'i ohangiga yaqin g'azabli tovushi** hammani hayratda qoldirdi, hatto Rahmonqulovning o'zi ham qanotli tuya ko'rganday angrayib o'tirdi. Lekin uning yuzidagi hayrat, xuddi iliqda erib ketayotgan moydek, rohat ifodasiga aylandi" ("Tug'ilish", 163-b.).

Insonlar ruhiyatidagi kuchli taranglik, tuyg'ularning keskinlashuvi natijasida uni boshqarish va tizginga solishda organizmning bardosh berish qobiliyati pasayib ketishi holatlari ko'p uchrab turadi. Ulyana qalbida ham ruhiy g'alayon yuqori nuqtaga chiqqanligi sababli jismi ichki bosimni oshkor qila boshlaydi. Gapirayotgan holatidagi "qaltirayotgandek" shaklida berilgan psixofiziologik tasvir qizning hissiyotlarini jilovlash uchun urinishlariga zid ravishda qon aylanish tizimidagi tezlik tanada ixtiyordan tashqari qaltirash jarayonini yuzaga keltirganligini ko'rsatadi. Asqad Muxtor Uyananing xarakterini, undagi kuchli g'ururni ochib berish maqsadida mazkur "qaltirayotgandek" psixofiziologiyasidan mohirona foydalanadi. Chunki Uyananing g'ururi Elchibekka dil izhori qilishga yo'l qo'ymaydi, biroq uning jismidagi fiziologik holat uning qalbidagi tug'yonlarni o'quvchiga oshkor etadi. Yozuvchi Uyananing Elchibekka befarq emasligini qiz g'ururini saqlagan holda psixofiziologik holat tasviri orqali mohirlik bilan namoyon qiladi.

Uyananing "**qaltirab**" boshlagan shafqatsiz tanqidi alamzadalikdan "**yig'i ohangidagi g'azabli tovush**"ga aylanib, Uyananing ichki kechinmasini tashqi psixofiziologik holatlarda tananing qaltirashi, ovoz tonining o'zgarishida namoyon bo'ladi. Barsovadagi mag'rurlik uning muhabbatga oshno bo'lishiga yo'l qo'ymasdi. O'zi xohlamasdan aytgan bu gaplari Rahmonqulovga moydek yoqib tushgani muallif remarkalarida aniq ifodalab berilmoqda. Muallif izohlari bilan qahramon xarakterining qirralarini ko'rsatib berish boshqa epizodik personajlar tasvirida ham kuzatiladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Asqad Muxtor qalamiga mansub "Tug'ilish" romanidagi ayol obrazlari psixologiyasida oddiylik, soddalik, o'z kasbiga fidoyilik kabi xususiyatlar bilan birga, qalbiga quloq tutish va ko'ngil istagi bilan hayot kechirish kabi umumiy xususiyatlar ham mavjudligini ta'kidlash joiz. Yozuvchi ayollar psixologiyasini ochib berishda psixofiziologik holat tasvirlaridan mohirona foydalangan. Qahramonlarning xatti-harakatlaridan tashqari tinish belgilari ham psixofiziologik holat tasviri uchun xizmat qilganligi ijodkorning mahoratini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мухтор А. Тугилиш. – То шкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963.
2. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. -Т.: Шарқ, 2007.
3. Норматов У. Ижод сеҳри. -Т.: Маънавият, 1998.
4. Узбек адабий танқиди. Антология. -Т.: Турон-Иқбол, 2011.